

## **"DEVONU LUG`OTIT-TURK" DA TAOM NOMLARINING IFODALANISHI**

**Muhsinjonova Shirinoy**

Alisher Navoiy nomidagi ToshDO`TAU magistranti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Mahmud Koshg`ariyning "Devonu lug`otit-turk" asarida qo`llanilgan taom nomlari xususida to`xtalinib, ular ma`lum guruhga ajratilgan holda tadqiq qilinadi. Oziq-ovqat mahsulotlari nomlarining asarda aks etishi bugungi kunda barchamiz uchun qimmatli manba vazifasini o`taydi. Sababi, tildagi so`zlarning tarixiy ko`rinishi haqida ma`lumotga ega bo`lish asar qiymatini yonada oshirishga xizmat qiladi.

**Kalit so`zlar:** Mahmud Koshg`ariy , "Devonu lug`otit-turk", taom nomlari, guruhlanish, etimologiya, qiymat, tarixiy ko`rinish.

**Annotation:** This article focuses on the names of dishes used in Mahmud Kashgari's "Devonu lug`otit-turk" and examines them in a specific group. The fact that the names of food products are reflected in the play is a valuable resource for all of us today. This is because knowledge of the historical appearance of words in a language serves to increase the value of the work.

**Keywords:** Mahmud Kashgari, "Devonu lug`otit-turk", food names, grouping, etymology, value, historical appearance.

**Аннотация:** В данной статье основное внимание уделяется названиям блюд, используемых в «Девону луг`отит-турк» Махмуда Кашигари, и рассмотрению их в особой группе. Тот факт, что в спектакле отражены названия продуктов питания, является ценным ресурсом для всех нас сегодня. Это потому, что знание исторического появления слов в языке служит повышению ценности работы.

**Ключевые слова:** Махмуд Кашгари, «Девону луг’отит-турк», названия блюд, группировка, этимология, значение, исторический облик.

Mahmud Koshg`ariyning “Devonu lug`otit-turk” asari tildagi lug`atlar jamlanmasi hisoblanib, uni ulkan xazina deb atasak, aslo mubolag`a bo`lmaydi. Sababi, ushbu xazinadan tildagi deyarli barcha so`zlar – taom nomlari, harbiy atamalar, tarixiy shaxslar, xalq og`zaki ijodining yuksak namunalari o`rin olgan bo`lib, ularni tadqiq etish bugungi kun oldida turgan dolzarb masalalardan biri sanaladi. Tadqiqotimiz maqsadidan o`rin olgan ushbu asardagi taom nomlarini o`rganish masalasi bizga taom nomlarining tarixiy ko`rinishlari, ularning turli xalqlarda turlicha nomlanishga ega ekanligi hamda bugungi va qadimgi tildagi taom nomlari borasidagi tafovut va o`xshatishlar haqida ko`plab ma`lumotlarga ega bo`lishga imkon berdi. Uyg`ur olimi Xo`ja Ahmad Yunus aytganlaridek: “X asrdan XII asrgacha bo`lgan oraliqda o`tgan Qoraxoniylar sulolasining gullagan iqtisodiy va yuksak madaniy hayotining mahsuli bo`lgan bu asar (turkiy xalqlarning) shu vaqtdagi va undan ilgarigi yeyish-ichish madaniyatini tadqiq qilishga asoslangan muhim manba hisoblanadi”[4]. Darhaqiqat, ushbu ensiklopedik asarda taom nomlariga xos bo`lgan ko`plab so`zlar o`rin olgan bo`lib, ularning ma`lum xalqlarda boshqa nom bilan, yana boshqa millatlarda boshqacharoq nom bilan yuritilishi , taom tayyorlanish usul va uslublari, oziq-ovqat mahsulotlarining tayyorlanish jarayonlari haqida batafsil ma`lumot berilgan. Mahmud Koshg`ariyning ushbu asarida turkiy xalqlar taomlariga alohida urg`u beriladi. Unda ayttilishicha, turkiy xalqlar taomlari turli-tuman bo`lib, ularning o`ziga xos o`xhash jihatlari taom va uning tayyorlanish uslubida ham o`zining yorqin ifodasini topgan. Mahmud Koshg`ariyning taomlar haqida jamlagan ma`lumotlaridan shuni ham anglash mumkinki, o`troq hayot tarzini kechiruvchi turkiy xalqlarning asosiy taomi dehqonchilik mahsulotlaridan, don, meva va sabzavotlardan tashkil topgani oydinlashadi. Ko`chmanchi turkiy qabilalarning esa asosiy taomlari sifatida sut va go`sht mahsulotlari keltiriladi. Bundan tashqari, ushbu asarda taom tayyorlashda ishlatiladigan uskuna nomlari haqida to`xtalingan bo`lib, bu bizga Qoraxoniylar davridagi taom tayyorlashda ishlatilgan buyumlarning nomi haqida bilim hosil qilishga yordam beradi.

Mahmud Koshg`ariy “Devonu lug`otit-turk” da aks ettirgan taom nomlari o`ziga xos xususiyatga ega hisoblanib, bugungi kunda nutqimizda keng ishlatilayotgan taom nomlarining asosiy qismi Qoraxoniylar davriga borib taqalishiga guvoh bo`lishimiz mumkin[3-. Oziq-ovqat nomlarining maxsus nomlar bilan atalishi, ularning kundalik yoki marosimlarga oid ekanligi ushbu asarda yaqqol ak etgan. Xususan, taom nomlarining o`ziga to`xtaladigan bo`lsak, ya`ni taomlar faqat “taom”, “oziq-ovqat” deya nomlanganmi yoki bundan tashqari ham o`zining maxsus nomlariga egami – bularning barchasiga ushbu dissertatsiyamiz orqali javob topishga harakat qilamiz.

Asarda taom nomlarining ifodalanishi turfa xillikni kasb etishi bilan birgalikda bizga o`sha davr nutqiy madaniyatidan ham darak beradi. Xususan, Qoraxoniylar nutqiy madaniyatida taom nomlarining aks etishiga nazar solsak, ularda eski turkiy til elementlariga yaqqol guvoh bo`lamiz. Oziq-ovqat nomlarining “azuq” tarzida ifodalanishi yoki bo`lmasa, shunga yaqinroq ma`no kasb etuvchi “uva” so`zi ham “Devon” leksikasidan joy olgan. “Uva” so`ziga asarda quyidagicha izoh beriladi: “bir turli taom” – bu so`z “burdaladi”, “uvatdi” ma`nosidagi uvdi fe`lidan yasalgan[3]. Bundan tashqari, “as” so`zining ham “taom”ma`nosini berishiga guvoh bo`lishimiz mumkin, ushbu so`z dastlab “Oltun yoruq” da qo`llanilganiga guvoh bo`lamiz: “sochig yaglig as” – mazali, yog`li ovqat. “Qutadg`u bilig” da ham “as” leksemasi yordamida hosil qilingan birliklar mavjud bo`lib, ular sirasiga quyidagilarni kiritishimiz mumkin: “as bascisi” – bosh oshpaz, “as suv” – taom, “as tat-“ taomni totmoq va hokazolar. “Devon”da “as” so`zi gap tarkibida qo`llanilgan holati ham kuzatiladi: “Er asig tatgandi” – kishi taom bilan lazzatlandi va tilini tanglayiga tegizib lazzat topdi. Bunga izoh tariqasida ushbu so`zning “pishgan osh” ma`nosini anglatuvchi “bisig as” birikmasi bilan ifodalanishi ham asar tarkibidan o`rin olgan holat hisoblanadi[3]. Bundan tashqari, “as” so`zi o`zining qator sifatlovchilariga ham ega, masalan, ciwgin as – to`q tutadigan, semirtiradigan ovqat. Uning “kewgin as” kabi ko`rinishi ham mavjud, ushbu birlik to`q tutmaydigan kuchsiz ovqat, oshga nisbatan qo`llanilib, “ciwgin” ning antonimi hisoblanadi. Yog`i ham, mazasi ham yo`q yovg`on osh “bulg`ama” deb yuritiladi[3].

Turkiy xalqlarda dastlabki tortiladigan ovqat nomi “tutguc” deya yuritiladi[3].

“Devon”da “yem” so`zi ham “taom, yemak” ma`nosini anglatgan. Ushbu so`zning asosi “yemoq, iste`mol qilmoq” ma`nosiga ega “ye-“ fe`li hisoblanadi. Ushbu holatning Turfon matnlariga o`xshashligini kuzatishimiz mumkin, ya`ni ushbu matnlarda “yem” so`zi “ichim”(ichimlik) yasalmasi bilan birgalikda “taom va ichimlik” ma`nosini anglatgan. Ta`kidlash lozimki, “Devonu lug`otit-turk” dagi ushbu yem so`zining tamoman boshqa ma`nosi ham mavjud, ya`ni unda “ot” so`zi bilan birgalikda qo`llanilib( yem ot) “ovqatga solinadigan kashnich, rayhon, yalpiz, zira” kabi ma`noni anglatgan. “Yem” so`zining “yam” shaklida “oziq-ovqat” ma`nosini anglatishi “At-tuhfa” asarida kuzatiladi. Biroq bugungi kunda kelib, yem so`zining ma`nosida biroz o`zgachalik kuzatilmoqda[3]. “O`zbek tilining izohli lug`atida” da ushbu so`zga quyidagicha ta`rif beriladi :

1. Hayvonlarga beriladigan g`alla mahsulotlari va ulardan tayyorlanadigan ozuqa.
2. Qo`lda boqiladigan qushlarga beriladigan go`sht.
3. Qarmoqqa yoki tuzoqqa ilintirib qo`yiladigan go`sht,chuvalchang va sh.k.

Demak, eski turkiy tilda qo`llanilgan yem so`zi va bugungi kunda nutqimizda qo`llanilayotgan yem so`zi umuman boshqa-boshqa ma`no anglatmoqda.

Xulosa sifatida aytishimiz mumkinki, Mahmud Koshg`ariyning “Devonu lug`otit-turk” asari o`zida taom nomlarini aks ettirishi bilan qimmatli manba vazifasini o`taydi. Asar orqali biz taom nomlarining eski turkiy tilda qanday ma`no ifodalashi xususida qimmatli ma`lumotlarga ega bo`lishimiz mumkin.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Xo`ja Ahmad Yunus. “Turkiy tillar devoni” dagi bayonlardan uyg`urlarning XI asrdagi yemak-ichmak madaniyatiga nazar. // Urumchi, 2005. № 4, 21-b.
2. Mahmud Koshg`ariy. Devonu lug`otit turk. I jild. 126, 159, 444, 445-b "Oriental Art and Culture" Scientific-Methodical Journal - Issue 5 / 2020 ISSN 2181-063X 160 <http://oac.dsni-qf.uz> 4.
3. M.Koshg`ariy. Devonu lug`otit turk. III tomlik. T. – 1960. – I tom, 17, 67 betlar.

4. Abdulaxatov N. va boshqalar.Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘atit turk” asaridagi leksik birliklar tadqiqi. Toshkent- 2013
5. [www.wikipedia.org](http://www.wikipedia.org)
6. [www.hozir.org](http://www.hozir.org)
7. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com)
8. [www.google.com](http://www.google.com)

